

## QIPCHOQ LAHJASINING LEKSIK, MORFOLOGIK, FONETIK XUSUSIYATI ALIDARUZ QISHLOG‘I MISOLIDA

Oydinov Tursunmurod Yusipovich

*SamDCHTI o‘qituvchisi*

**Rustamova Xumora Obid qizi**

*SamDCHTI Sharq tillari fakulteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*2-bosqich 2409-guruhi talabasi*

**Annontatsiya:** *Makur maqolada Qipchoq lahjasining Alidaroz qishlog‘i ko‘rinishida fonetik, leksik, morfologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mahalliy vakil nutqida yozib olingan matn asosida va qo‘shimcha ma‘lumotlar asosida shevaning o‘ziga xos birliklari aniqlanib adabiy til bilan qiyosiy o‘rganiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qipchoq shevasi, fonetik hodisa, lahja, leksik qatlam, morfologik xususiyat, Alidaroz shevasi.*

O‘zbek tilining dialektal tizimida qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari ajralib turadi. Ulardan qipchoq lahjasi o‘zining fonetik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Alidaroz qishlog‘i shevasi misolida qipchoq lahjasining til xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti-Alidaroz qishlog‘i aholisining shevasi va qishloq vakili-Abduazizova Dilbar onamiz nutqidan yozib olingan matn. Tadqiqot predmeti-ushbu nutqdagi fonetik, leksik va morfologik belgilar. **Quyida sheva vakili Abduazizova Dilbar onamizning tilidan keltirilgan matn:**

Ana, siz menga kichikligingizdan boshlab maktabni bitirguningizgacha bo‘lgan davrni aytib bering.

-**Bizar** katta oilada katta **bo‘g‘anmiz**, meni otam cho‘pon **bo‘g‘an**, mol boqqan. Anam uyda **bo‘g‘an**, **bizarga qarag‘an**, ovqat **qig‘an**, otamni kuzatgan ishga, **bizar** sakkiz kishi **bo‘g‘anmiz** bolam, beshta qiz uchta **ul bo‘g‘an**. Men kattasi **bo‘g‘anman**, to‘ng‘ichi. Men ukamlarga **qareydim**, maktabga **boreydik**. 14-maktabga. Enam tondirda non **joveydi**, men ukamlardi ko‘tarib nonga cho‘p **ureydim**.

U paytlar cho‘p **ureydik** hozir **nampar** uramiz. Anam **tondirdagi** cho‘g‘di **kesov** bilan uyib, qo‘liga **jengsa**, **rapita** kiyib non **joveydi**. **Tondirimizdi** oldida o‘choq **bo‘leydi**, qozonga ovqat **qileydik**, bir kun otamdi kelishiga **siyir sovib**, atala pishirib **juxma qileydik**. Bir kunlari osh **qiledik**, u **pilla** hamma qozonga qilardida, qorlar **jovib qosa** pechkaga **qilardi**, gaz **jo‘g‘idi**. Keyin paxta **tereydik** to kuzgacha, non **tuyib boreydik**, u nondi paxtadan chiqib **jeb** qaytardik, eshak minib **boreydik**, **malimlarimiz** ham **boreydi**, **bir pillalar** qorong‘ilarda **qob keteydik**, eshakdi minib **choptireydik**. Qo‘rqib **jileydik**, **malimlarimiz** ham **bizardi** tashlab ketardida.

U **dovrlar** takrorlanmas zo‘r **dovrlarda**. Keyin 9-sinfdi bitirganimdan otam meni kattanga uzatdida. 4-5 kunlik kelinchak **bo‘g‘animizdayam bizardi** paxtaga chiqarardi. Oradan 2 **jil** o‘tib qayinnam rahmatli bo‘b qoldi. **Kattanglaram** sakkiz **kishiydi**. Katta

**ro‘zg‘oriydik.** 5 jildan keyin otang **tuvidi**, kattang o‘qishdi bitirdi, maktabga ishga kirdi kattangdi hecham **xo‘romolsiz** ko‘chaga chiqarmaganman. Otanglar maktabga bordi, qaynilarim katta bo‘ldi, ulardi o‘qitdik uylantirdik.

To‘yga qaynatam rahmatini do‘konidan ko‘rpalarga **astar-avralari, adiplaridi saylab-saylab oleydik**, ulardi otanglardi uxlatib qo‘yib **tikeydik**. Katta **ro‘zg‘oreydik**, ikki **tondirlab non joveydik**, undan **g‘ijmij qib bereydik**. **Sigir soveydik**, uni sutini pishirib, **qotiq qib, do‘rvoda og‘izib, kuvida pishib, lo‘mmoy- lo‘mmoy sori moy oleydik**, chalob **qileydik**. Chakkidan achchosh, **keskanosh qileydik**. Nonlardi **qotib qoganini keliga sob talqon qileydik**. Uni asosan qishda yerdik. Bizdi asosiy daromadimiz **juzumdan** bo‘lgan, **takdi och, ko‘m, xomnot qi, juzumini uz**, uni **shoti** bilan **chertakka** ob chiq, qurit, mayiz qi, bu **juzumdiyam** ishi ko‘p.

Qipchoq lahjasining umumiy tavsifi. Tarixan qipchoq lahjasi qadimgi turkiy qipchoq qabilalari tili asosida shakllangan. Hozirda Samarqand, Jizzax, Surxandaryo, Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Toshavuz hududlarida keng qo‘llanadi. Bu shevada “j”lovchi hodisa, “g”tovushing o‘rniga “v” tovushing qo‘llanishi (tog‘-tov) “k”, “q” (sovuq-sovu, quruq-quru) tovushlarning tushib qolishi asosiy belgilari hisoblanadi.

#### **Fonetik xususiyatlari.**

Alidaroz shevasining eng haraktetli belgisi “j” lovchi hodisa hisoblanadi. Adabiy tilda “y” tovushi qo‘llansa bu sheva vakillari asosan “y” tovushi o‘rniga “j” tovushini ishlatishadi. Masalan: joveydi “yopar edi”, jovib “yopib”, jeb “yeb”, ileydik “yig‘lar edik”, jil “yil”, juzum “uzum” kabi. Bundan tashqari, biz sheva vakillari tilida tovush o‘zgarishi hodisalariga ham guvoh bo‘lamiz. Ularning tillaridan yozib olingan “bo‘g‘an”, “qig‘an”, kabi so‘zlarda “l” tovushining tushishi va “g” tovushining “g” tovushiga aylanishini, “tuvidi” so‘zida esa “g” tovushi o‘rnida “v” tovushi ishlatilganligini ko‘ramiz. “Mallim” so‘zida “u” tovushining tushishini, “jo‘g‘idi” so‘zida tovush almashishi, ortishi va tushishi kabi hodisalarni kuzatamiz ya’ni adabiy tilda jo‘g‘ emas, “yo‘q” qo‘llanadi va bu yerda “y” tovushi “j” tovushiga, “g” tovushining esa , “q” tovushiga almashganini kuzatish bilan birgalikda, “edi” to‘liqsiz fe‘lining “di” shaklida qo‘llanib tovush tushishi hodisasi hosil bo‘lganligini ko‘ramiz. “i” tovushi ortayapti.

Bundan tashqari, sheva vakili “bizlar” so‘zini “bizar” shaklida qo‘llaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, sheva vakillari “lar” qo‘shimchasini “ar” shaklida qo‘llashadi.

Matnda keltirilgan “boreydi”, “qareydim”, “ureydik”, “qileydik”, “tereydik”, “tikeydik”, “ro‘zg‘oreydik”, “kishiydi”, “soveydik”, “joveydik” so‘zlarida sheva vakili adabiy tildagi “ar” qo‘shimchasining o‘rniga “ey” qo‘llaganini ko‘ramiz bu esa, sheva vakillari nutqida ba’zi so‘zlarda “y” ni orttirib qo‘llashini ko‘rsatadi.

Alidaroz qishlog‘idagi fonetik o‘zgarishga uchrab aytiladigan so‘zlar: dostiq-yostiq, ojriq-ajriq, avara qilish-ovvora qilmoq, tak-tok, juzum-uzum, buytib-bunday qilib, anu-anavi, manu-manavi, ul-o‘g‘il, shibirtqi-supurgi, chip-ip, so‘mka-sumka va h.k.

Shevada turmush tarzi bilan bog‘liq ko‘plab so‘zlar saqlangan bunga misol qilib sheva vakili tilidan yozib olingan matnda: “kesov, rapita, jengsa, juxma, xo‘romol, do‘rva, g‘ijmij, lo‘mmoy-lo‘mmay” kabi so‘zlar ishlatilganligini va ularning adabiy tildagi ma’nolari quyidagicha ekanligini ko‘rib chiqamiz;

Kesov-tandirdagi cho‘g‘ni to‘plash uchun ishlatiladigan uzun temir.

Rapita-tandirga nonni yopishtirish uchun qo‘lga kiyiladigan non yopqich. Jengsa-tandirdan nonni oladigani. juxma-adabiy tilda g‘ilmindi Xo‘ramol-dasro‘mol. Do‘rva-qop. G‘ijmij-issiq non va sigir yog‘idan tayyorlanadigan ovqat. Lo‘mmoy-lo‘mmoy–katta-katta ma‘nolarida ishlatiladi. Bu so‘zlar bilan birgalikda Alidaroz qishlog‘ida adabiy tildan farq qiluvchu bir qancha so‘zlar mavjud. Ular quyidagilar; Bulturgi-bir yil avvalgi G‘ujurli-shijoatli Chapcha-qovunni pishmagani Glagay- sigirtning birinchi suti Kayvani-nimadirga o‘rganib qolgan Iyarib-ergashib Bir pasil-bir muddat Pidana-yalpiz Olqindi-sovunni kam qolgani Timirskalanish-nimadirlar izlash, oyoq ostida o‘ralashish Zardoli-o‘rik Boshmardoq-birinchi barmoq Chinaqay-kichkina barmoq Shangna qilish-ozgina ochib qo‘yish Sergib qolish-qurib qolish Boyag‘i-haligi. Bu leksik birliklar hudud aholisining xo‘jalik faoliyati va kundalik turmushini aks ettirdi.

### **Morfologik tahlili**

Quyidagi matnda keltirilgan “ukamlardi”, “tondirmizdi”, “otamdi”, “nondi”, “eshakdi”, “bizardi”, “sinfdi”, “kattangdi”, “ulardi”, “otanglardi”, “bizdi” kabi so‘zlarda “ni” tushum kelishigi “di” shaklda qo‘llangan. “Bizar” so‘zida esa, “lar” qo‘shimchasining “ar” shaklida qisqartirib ishlatiganini ko‘ramiz. “Boreydik”, “qileydik”, “tereydik” va matnda keltirilgan boshqa so‘zlarda kelasi zamon “ar” qo‘shimchasini “ey” shaklida qo‘llanishi shevaning grammatik o‘ziga xosligini namoyon etadi.

Qipchoq lahjasining Alidaroz qishlog‘i ko‘rinishini o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslash natijasida sezilarli leksik, fonetik va morfologik farqlar aniqlanganini ko‘rdik. Ushbu faqlanishga sabab tilning tarixiy taraqqiyoti, hududiy shakllanishi hamda og‘zaki nutq an‘analari bilan bog‘liq. Shu bilan birgalikda, Alidaroz qishlog‘i qipchoq lahjasining jonli namunasi sifatida bugungi kunda ham o‘ziga xos til birliklarini saqlab kelmoqda. Ushbu lahjada ayrim so‘zlarning talaffuzi adabiy tildan farq qilish, unli va undosh tovushlarning almashinuvi kuzatiladi. Alidaroz qishlog‘i, qipchoq lahjasi o‘zbek tilining boy va rang-barang ko‘rinishlaridan bo‘lib, u nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniy meros sifatida haam muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o‘rganish va saqlash o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.
3. Ражабов Н. Қарноб шевасида феъл категорияси // ЎзДУ асарлари. 77-янги серия. – Самарқанд, 1958.
4. Эгамов В. Ғаллаорол шевасининг баъзи бир морфологик категориялари ҳақида // Ўзбек Давлат университетининг асарлари.– Самарқанд:1959. 83-101-б.
5. Узоқов Ҳ. Водил шевасида феълларнинг тусланиши // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1960.
6. Жуманазаров Ю. Хоразм шевасининг баъзи бир феъл формалари // II. – Тошкент, 1961.

132

7. Иброҳимов Й. Хўжайли-Қўнғирот шевасида тусланиш категорияси // Тилшунослик масалалари. –Тошкент: Фан, 1978. 212-215-б.
8. Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан,1984. 3- 122-б.
9. Enazarov T. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. –Тошкент: Universitet, 2012.